


MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

64-dars. ELEKTRON IMZO VA ELEKTRON HUJJAT ALMASHINUVI

Bundan bir necha yillar ilgari ariza, murojaat, taklif kabi hujjatlar qo'lda qo'yilgan imzolar bilan tasdiqlangan. Nima uchun imzo qo'lda qo'yilganligini tushunish juda oson. Hujjat yuritish ishlari qog'ozda qilinganligi sababli ham qo'lda qoyilgan imzo, muhr hujjat kimga tegishli ekanligi va uning haqiqiylikini tasdiqlash uchun eng yaxshi usul hisoblangan.




TAYANCH TUSHUNCHALAR

Imzo – hujjatning haqiqiylik hamda yuborgan jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi shaxs fiziologik xususiyati.

Muhr – hujjatning haqiqiylik hamda qandaydir yuridik shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi isbot.

Elektron raqamli imzo (ERI) – hujjatni imzolashning tez, qulay va ekologik toza usuli.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida hujjatlarning aksariyati raqamli ko'rinishga o'tkazildi. Buning natijasida, "raqamli imzo", "elektron imzo", "elektron raqamli imzoning dasturiy ta'minoti" kabi atamalar tez-tez quloqqa chalinadigan bo'ldi. XXI asrning eng katta yutuqlaridan biri "elektron raqamli imzo" hisoblanib, u qog'oz shaklidagi hujjatlarni elektron hujjat yoki faylga aylantirish, elektron shaklda imzolash, asl hujjat yaxlitligini saqlash va imzo chekuvchining shaxsini tasdiqlash kabi imkoniyatlarni beradi.



ERI hujjatlar bilan ishlashga sarflanuvchi vaqtni tejaydi. Boshqacha aytganda, ERI USB flesh-diskdagi faylni chop etish va uni imzolashni emas, aksincha, hujjat aylanish jarayonini tezlashtiradi.

Agar ERI mavjud bo'lmasa, u holda dastlab varaqni chop etish, imzolash, zarur bo'lsa muhrlash, konvertga solish, pochta bo'limiga borish va konvertni kerakli manzilga yuborish, shundan so'nggina qolgan ishlarni bajarish mumkin. Agar elektron hujjat aylanishi va ERI mavjud bo'lsa, butun jarayon sezilarli darajada tezlashadi.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

Umuman olganda, **elektron imzo** oddiygina elektron shakldagi imzodir. Bu imzo chekuvchilarga an'anaviy, ya'ni qo'lda chekiladigan imzo kabi hujjat shartlarini tasdiqlash yoki rozilik berish imkonini beradi. Elektron imzo, aslida, kompyuterdan foydalanuvchini tasdiqlash va hujjat yaxlitligini tekshirish jarayoni hisoblanadi.

Raqamli imzo – hujjat yaxlitligi bilan bir qatorda imzolanuvchining haqiqiylikini tasdiqlash uchun murakkab algoritmlar, sertifikatlashtirish organlari va ishonchli xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan foydalanuvchi elektron imzo turi.

Qog'ozsiz hujjat almashinuvi zamonaviy vositalari, elektron to'lov vositalarini rivojlantirishni hujjatning haqiqiylik va yaxlitligini rivojlantirmay tasavvur qilib bo'lmaydi. Oddiy imzoning asosiy xususiyatlarini saqlab qoluvchi ERI mana shunday vosita hisoblanadi.

ERI uy sharoitida ham ko'plab davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 562-II-sonli "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar keltirilgan:

ELEKTRON RAQAMLI IMZO (ERI) –

- elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan, elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

ELEKTRON RAQAMLI IMZONING YOPIQ KALITI –

- elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;

ELEKTRON RAQAMLI IMZONING OCHIQ KALITI –

- elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;


ELEKTRON RAQAMLI IMZONING HAQIQIYLIGINI TASDIQLASH –

- elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga mansubligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija;

ELEKTRON HUJJAT (EH) –


- elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA



Elektron raqamli imzo kalitining sertifikat ERIning ochiq kaliti ERIning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va ERI yopiq kalitining egasiga ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjatdan iborat bo'ladi. ERI kalitining sertifikatini elektron hujjat shaklida va qog'oz hujjat shaklida tayyorlanishi mumkin.

Elektron raqamli imzo vositalari elektron hujjatda elektron raqamli imzo yaratilishini, elektron raqamli imzoning haqiqiyliги tasdiqlanishini, elektron raqamli imzoning yopiq va ochiq kalitlari yaratilishini ta'minlaydigan barcha texnikaviy va dasturiy vositalardan iborat bo'ladi.



Yangi texnologiyalar markazining rasmiy axborot resursi www.e-imzo.uz – elektron imzo uchun arizalarni qabul qilish, ro'yxatga olish markazining axborot vositalari yordamida ochiq va yopiq kalitlarini yaratish uchun hamda elektron imzo sertifikatlarini boshqarish uchun mo'ljallangan veb-sayt hisoblanadi.

Elektron hujjat aylanishi O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004-yil 29-apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi:

Elektron hujjat aylanishi (EHA) elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA



Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (jumladan, shartnomalar) tuzish, hisob-kitob, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-sonli "Elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi"gi Qonunida quyidagi tushunchalar keltirilgan:

Elektron hujjatni jo'natuvchi – elektron hujjat rekvizitlarida nomi ko'rsatilgan hamda Ehni qabul qilib oluvchiga Ehni jo'natayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron hujjatni qabul qilib oluvchi – elektron hujjatni jo'natuvchi tomonidan yo'llangan Ehni qabul qilib oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron hukumat doirasida davlat organlarining foydalanuvchilar bilan o'zaro hamkorlik qilishi uchun elektron hujjatlar muhim hisoblanadi.

Elektron hujjat bevosita elektron hujjatni jo'natuvchi yoki uning axborot vositachisi tomonidan jo'natilgan bo'lsa, **jo'natilgan** deb hisoblanadi.

ELEKTRON HUJJATNING REKVIZITLARI

- Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat:
- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Elektron hujjat, agar elektron hujjatning qabul qilib olinishini ta'minlagan axborot tizimi, hatto boshqa yerda joylashgan bo'lsa ham, Ehni qabul qilib oluvchi turgan joyda **qabul qilib olingan** deb hisoblanadi.

Kundalik faoliyat raqamli texnologiyalarga ko'chgani uchun ham virtual tarmoqda erkin va xavfsiz, ishonchli harakatlanish, shaxsni tasdiqlash va jarayonlarni amalga oshirish uchun har bir kishiga ERI kerak bo'ladi.

Jumladan, davlat organlarining interfaol xizmatlaridan, shuningdek, Yagona portalda ko'rsatiladigan xizmatlaridan foydalanish uchun albatta ERI bo'lishi lozim. Aks holda bu xizmatlardan foydalanishning imkoni yo'q. Xususan, biror davlat idorasiga ariza, murojaat,

taklif yuborish uchun ham sizning shaxsingizni tasdiqlaydigan, o'zaro ishonchli hamkorlikni ta'minlaydigan ERIga ega bo'lishingiz zarur.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

Eslatma! ERI olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim: ERI kaliti sertifikat va kalitni olish to'g'risidagi imzolangan hamda zarur hollarda muhr bilan tasdiqlangan ariza; arizada ko'rsatilgan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs vakilining pasporti; ERI kalitlarini yaratish xizmati uchun to'lov to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida ERI kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun "CLICK" tizimi orqali to'lovni amalga oshirish yo'lga qo'yilgan. Buning uchun telefonda *880*0113*STIR*to'lov summasi# USSD buyrug'i teriladi.

Bunda: STIR – soliq to'lovchining identifikatsion raqami; to'lov summasi – eng kam oylik ish haqining 10 % i miqdorida. "CLICK" orqali to'lov xizmati faqat jismoniy shaxslar uchunгина mavjud bo'lib, u O'zR DSI va uning hududiy boshqarmalari tomonidan beriladigan ERI uchun amalga oshiriladi. To'lov amalga oshirilganidan so'ng yaqin oradagi DSIga tashrif buyuring. ERI kalitlarini yozish uchun USB flesh-kartasini olib borishni unutmang.

AMALIY FAOLIYAT

Topshiriqlar
Topshiriq Elektron raqamli imzoni onlayn tarzda olish. ERIni 3 xil yo'l bilan olish mumkin: 1) davlat xizmatlari agentligidan; 2) e-imzo.uz saytidan; 3) yagona interfaol xizmatlar portalidan.

- 1) my.gov.uz saytiga yagona identifikatsiya tizimi (OneID)ga oid shaxsiy login va parolingiz (avvalgi darsda olingan) bilan kiring, portal oynasi va xizmat turlari bilan tanishib chiqing;
- 2) veb-sahifa oynasidan "Elektron kalit olish" identifikatorini tanlang va "ERIni onlayn tarzda olish" yo'riqnoma-si bilan tanishib chiqing;
- 3) "Xizmatdan foydalanish" tugmachasini bosing va ushbu oynada so'ralgan ma'lumotlarni kiriting;
- 4) yashash hududingiz va tumaningiz hamda telefon raqamingizga kelgan kodni quyidagi oynaga kiriting va tasdiqlash tugmachasini bosing;
- 5) keyingi sahifada pasportingiz suratini yuklang. Namunada ko'rsatilganidek,
- 6) ERIni saqlash joyini tanlang ("DSKEYS" nomli papkada saqlanadi) va yangi kalit so'z (parol)ni shakllantiring va **.pfx faylni yaratish va davom ettirish** tugmachasini bosing;

The screenshot shows a web form for creating an ERI. It has two input fields at the top: 'Sizning STIR' with the value '507016' and 'Telefon *' with the value '(97) 344-'. Below these is a field for 'Tekshiruv kodini kiriting *' with the value '5-2' and a refresh button. At the bottom, there are two blue buttons: '.pfx faylni yaratish va davom ettirish' and another identical one below it.


MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

	1) Ariza – Bitimi bilan tanishib chiqing va so'rov yuborish tugmachasini bosing; 2) ochilgan oynaga yuqorida yaratilgan kalit so'zni yozing; 3) o'zingizga qulay bo'lgan davlat bojini to'lang (yuborilgan ariza (anketa) davlat xizmatlari markazi operatori tomonidan 1 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi va SMS xabar yuboriladi); 4) "Mening arizalarim" bo'limidan arizangiz holatini tekshiring (ERI sertifikatini berishda ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, murojaat etuvchiga arizada ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS xabar yuboriladi. Ariza ko'rib chiqish jarayonida muayyan sabablarga ko'ra rad etilishi ham mumkin); 5) sertifikat berilgandan keyin u bilan tanishib chiqing, tasdiqlang, so'ngra kalit so'zni kiriting va "OK" tugmachasini bosing; 6) jarayon yakunida ERI kalitini yuqorida yaratilgan "DSKEYS" nomli papkadan ko'ring.

Nº	Topshiriqlar
1	Elektron murojaat qanday imzo bilan tasdiqlanishi shart? a) oddiy imzo; b) raqamli imzo; c) elektron raqamli imzo; d) imzolanishi shart emas.
2	ERI kalitlari sertifikatlari qayerda beriladi? a) berilmaydi; b) istalgan joydan olish mumkin; c) royxatga olish markazlari tomonidan; d) bunday sertifikat mavjud emas.
3	Elektron hujjatning rekvizitlariga nimalar kirmaydi? a) elektron raqamli imzo; b) hujjat yaratilgan sana; c) elektron hujjat jo'natuvchisining pochta va elektron manzili; d) login va parol.
4	O'zbekistonda qanday elektron hujjat almashish tizimlari mavjudligini aniqlang.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

UYGA VAZIFA



1. Elektron raqamli imzodan foydalanish muddatini aniqlang. -QR-kodida joylashtirilgan manba bilan tanishib chiqing va E-imzo modulini Mozilla Firefox brauzeriga o'rnating.
2. O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida" va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlari maqsad va vazifalari bilan tanishib chiqing.